

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAPASHOV IKRAMJAN YAUMITBAYEVICH

**POLIPROPILEN ISHLAB CHIQARISH JARAYONINING IKKILAMCHI
MAHSULOTLARI ASOSIDA DIZEL YOQILG'ISINING QUYI HARORATLI
XOSSALARINI YAXSHILOVCHI PRISADKALAR OLIH
TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati muundarijasi
Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Sapashov Ikramjan Yaumitbayevich

Polipropilen ishlab chiqarish jarayonining ikkilamchi mahsulotlari asosida dizel yoqilg`isining quyi haroratli xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olish texnologiyasi5

Сапашов Икрамжан Яумытбайевич

Технология получения присадок, улучшающих низкотемпературные свойства дизельного топлива, на основе вторичных продуктов процесса производства полипропилена 21

Sapashov Ikramjan

Technology for obtaining additives that improve the low-temperature properties of diesel fuel based on secondary products of the polypropylene production process 39

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....42

**BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc. 03/28.02.2022.T.101.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

BUXORO MUHANDISLIK-TEXNOLOGIYA INSTITUTI

SAPASHOV IKRAMJAN YAUMITBAYEVICH

**POLIPROPILEN ISHLAB CHIQRISH JARAYONINING IKKILAMCHI
MAHSULOTLARI ASOSIDA DIZEL YOQILG'ISINING QUYI HARORATLI
XOSSALARINI YAXSHILOVCHI PRISADKALAR OLIH
TEXNOLOGIYASI**

02.00.08 – Neft va gaz kimyosi va texnologiyasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Buxoro – 2023

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/T3560 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro muhandislik-texnologiya institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.bmti.uz) hamda «Ziyonet» Axborot – ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Fozilov Sadridin Fayzullaevich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Maxmudov Muxtor Jamolovich
kimyo fanlari doktori, dotsent

Adizov Bobirjon Zamirovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Yetakchi tashkilot:

Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti

Dissertatsiya himoyasi Buxoro muhandislik-texnologiya instituti huzuridagi DSc.03/28.02.2022.T.101.01 raqamli Ilmiy kengashining 2023 yil « 11 » *avgust* soat 14.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84, faks: (+99865)223-78-84, e-mail: bmti_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro muhandislik-texnologiya institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (440- raqami bilan ro'yhatga olingan). (Manzil: 200117, Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 15-uy. Tel.: (+99865)223-78-84).

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil « 29 » iyul kuni tarqatildi.
(2023 yil « 07 » iyundagi № 19-raqamli reestr bayonnomasi).



Н.Р. Баракаев
Илмий даражалар берувчи илмий кенгаш
раиси т.ф.д., профессор

Р.Р. Хайитов
Илмий даражалар берувчи илмий кенгаш
илмий котиби т.ф.д., кат.ил.ход.

Х.Б. Дўстов
Илмий даражалар берувчи илмий кенгаш
кошидаги илмий семинар
раиси к.ф.д., профессор

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyoda dizel yoqilg'isining ekspluatatsiyon xususiyatlariga qo'yilgan talabning ortishi natijasida, EURO-4,5 standarti me'yorlariga javob beradigan, yuqori sifatli yoqilg'ilarni olish uchun, avvalo, munosib xomashyoni tanlash, qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirish va modernizatsiyalashni taqozo qilmoqda. Ishlab chiqarish jarayonlarining chiqindilari va ikkilamchi mahsulotlari ustida tadqiqotlar olib borish, ulardan oqilona foydalanishni samarali usullarini amalga oshirish, shuningdek, dizel yoqilg'ilarining boshqa turdagi yoqilg'idan farqli ravishda ekologik va fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilashda prisadkalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda neft-gaz, kimyo sanoati chiqindi va ikkilamchi mahsulotlarini qayta ishlash natijasida, ulardan sifatli mahsulotlar olish, muqobil va sintetik yoqilg'ilar olishning yangi usullarini yaratish, yoqilg'ilarning fizik-mexanik xossalarini yaxshilash maqsadida turli tarkibli prisadka va ularning kompozitsiyalarini yaratish bo'yicha izlanishlar olib borilmoqda. Bu borada bugungi kunda yuqori sifatli quyi haroratli xossalari talab darajasidagi dizel yoqilg'ilarini ishlab chiqarishda turli tarkibli prisadka va texnologik jihatdan eng sodda va tejamkor usullardan foydalanish bo'yicha izlanishlar olib borilishi bilan birga mavjud chiqindi va ikkilamchi mahsulotlar ma'nbalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda neft-gaz sanoatidagi samarali ishlar natijasida, neft mahsulotlarini diversifikatsiya qilish, iste'molchilarning sifatli neft mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Olib borilgan bir qator izlanishlar natijasida, 2021 yilga kelib Respublikamiz tarixida ilk bor Buxoro neftni qayta ishlash zavodi tomonidan "EURO-6" rusumidagi ekologik toza dizel yoqilg'isini ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "Iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalari va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish" kabi muhim vazifalar belgilab berilgan¹. Shu nuqtaiy nazardan xalqaro EURO-5 ekologik standartlari talablariga javob beradigan va yoqilg'ining ekspluatatsiyon xossalarini yaxshilovchi, import o'rnini bosuvchi prisadkalarni mahalliy ikkilamchi mahsulotlar asosida ishlab chiqarish va amalyotga joriy etish muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni, 2018 yil 25 oktyabrdagi «O'zbekiston Respublikasida kimyo sanoatini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-3983-sonli hamda 2019 yil 3 apreldagi «Kimyo sanoatini yanada isloh qilish va uning investitsiyaviy jazibadorligini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4265 sonli Qarorlarida va mazkur faoliyatga tegishli bo'lgan boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi farmoni

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. «Kimyoviy texnologiya va nanotexnologiyalar» yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Dizel yoqilg‘ilarning fizik-kimyoviy va eksplutatsion xossalarini yaxshilovchi prisadkalar olish bo‘yicha dunyoda Vincent Burgess, Wai Yin Leung, Jacqueline Reid, Jurgen Roder, Yongfei Li, Jiao Yan, Ya Wu, N.I. Chernojukov, T.P. Juze, P.A. Rebinder, P.I. Sanin, T.N.Mitusova, A.M.Danilov, R.A.Terteryan, N.K. Kondrasheva, Ya. B Chertkov, Ye.G. Gilajov, R.Ye. Kern, M.M.Lobashova, va boshqalar, mamlakatimizda Sh.M.Sayidaxmedov, A.T.Jalilov, S.M.Turobjonov, V.N.Hamidov, G.R.Normetova, M.P.Yunusov, S.A.Abduraximov, O.M.Yoriev, N.Yodgorov, S.F.Fozilov va boshqalar tamonidan olib borilgan.

Mamlakatimiz va chet davlatlarda dizel yoqilg‘isining quyi haroratdagi xossalarini yaxshilovchi prisadkalar sintezi bo‘yicha ja‘dal tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatdiki, hozirgi kunda ishlab chiqarish jarayonlarida qo‘llanilayotgan neft va gaz kondensat konlaridan olinadigan mahsulotlarning tarkibidagi n-parafin uglevodorodlari va oltingugurt miqdoriga qarab tasir da‘rajasiga ega bo‘lgan sopolimer prisadkalar sintez qilish, sopolimerlarning molekulyar massasi va polidisperslik xususiyatlarini dizel yoqilg‘isining quyi haroratli xossalariga ta‘sir mexanizmlari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Ushbu muammolarni yechishda mahalliy dizel yoqilg‘isining uglevodorod tarkibini batafsil o‘rganish va uning tarkibi va ishlash xususiyatlari, shuningdek dizel yoqilg‘isining depressor prisadkalarning samaradorligi o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash dolzarb va muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Buxoro muhandislik-texnologiya institutining ilmiy-tadqiqot rejasining ITD-12-12 “Mahalliy chiqindilar asosidagi xomashyolardan neft mahsulotlari uchun turg‘unlashtiruvchi prisadkalar olish texnologiyasini yaratish” (2012-2014 y.) mavzusidagi amaliy loyihasi, “Neftgazpolimer servis” MChJ №14-17 “Mahalliy ikkilamchi xomashyodan suyuq uglevodlarni fraksiyalarga ajratishni faol innovatsion texnologiyasini ishlab chiqish” mavzusidagi xo‘jalik shartnomasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi “Uz-Kor Gas Chemical” QK MChJ ikkilamchi polipropilen asosida depressor prisadkalar sintez qilish va ularni olish texnologiyasini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

“Uz-Kor Gas Chemical” QK MChJ ikkilamchi polipropilenning fizik-mexanik xossalari va stereoizomer strukturasi aniqlash;

ikkilamchi polipropilen mahsuloti asosida metilakrilat va metakril kislota bilan sopolimerlanish reaksiyasiga turli omillar (erituvchi va initsiator tabiati, harorat va monomer nisbati) ta‘sirini tadqiq qilish;

sopolimer tarkibidagi polipropilen mol nisbati, molekulyar massasi va polidisperslik xossalarini dizel yoqilg‘isining depressorlik ta‘sirini tadqiq qilish;

sintez qilingan sopolimer prisadkalarining tuzulishi va ta'sir mexanizmini zamonaviy fizik-kimyoviy va kolloid usullarda o'rganish va dizel yoqilg'isining quyi haroratli xossalarga ta'sirini standart talablarga muvofiq qiyoslash;

ikkilamchi polipropilen asosida depressor prisadka olish texnologik sxemasini ishlab chiqish va ularning iqtisodiy samaradorligini baholash.

Tadqiqotning ob'ekti sifatida, dizel yoqilg'isi, ikkilamchi polipropilen, metilakrilat, metakril kislota, erituvchilar, spirtlar va initsiatorlar olingan.

Tadqiqotning predmeti Uz-Kor gas Chemical QK MChJ ikkilamchi polipropilen asosida sopolimerlar sintezi va ularning zanjir konfiguratsiyasi va polidisperslik xususiyatlarini dizel yoqilg'isida depressorlik ta'sirini baholash va olish texnologiyasini ishlab chiqish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Ilmiy tadqiqotlarni bajarishda fizik va kolloid-kimyoviy (IQ, YaMR-spektroskopiya, skanerlovchi elektrton mikroskopiya SEM) tahlil usullari va va modellashtirish dasturiy tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ikkilamchi polipropilen bilan metilakrilat va metakril kislotalarning sopolimerlanish jarayonida atmosfera bosimi, harorat, erituvchilar tabiati va initsiatorlar miqdorining ta'siri ilmiy asoslangan;

sopolimer tarkibida 4:1 polipropilen va metilakrilat sopolimerlanish reaksiyasida initsiator miqdori 0,6 %, harorat 75⁰C bo'lganda reaksiya unumi 84,9% va molekulyar massasi 6404 g/mol ekanligi aniqlangan;

polipropilen va metilakrilat 4:1 nisbatdagi sopolimerlar va polidisperli darajasi 4,97 bo'lganda depressor xususiyatini namoyon qilganligi amaliy isbotlangan;

ikkilamchi propilen p-ksilolda 110⁰C eruvchanligi, sopolimerlanish jarayoni 75⁰C harorat, initsiator miqdori 0,6 % va reaksiya davomiyligi 180 minut bo'lganda maqbul rejimlar asosida PP va MA asosida prisadka olishning texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ikkilamchi polipropilen va metilakrilat asosida ishlab chiqilgan muqobil rejim asosida depressorli prisadkalar sintez qilingan.

dastlabki moddalarni tozalash va ularni reaksiyon zonaga uzatish shuningdek polidisperslik darajasini nazorat qilgan holda ikkilamchi polipropilen bilan metilakrilat va metakril kislotalar asosida sopolimerlanish reaksiyasi natijasida yuqori depressor xususiyatiga ega bo'lgan prisadkalar sintezini amalga oshirish laboratoriya qurilmasi yig'ilgan.

dizel yoqilg'isining quyi haroratli xossalarni yaxshilovchi polipropilen va metilakrilat asosida prisadkalar olish texnologik sxemasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi analitik, fizik-kimyoviy tahlil, laboratoriya tajribalari, ishlab chiqarish sinovlari natijalari hamda depressor prisadkalar ishlab chiqarishning amaldagi standart talablari bo'yicha aniqlanganligi bilan tasdiqlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati polipropilen va metilakrilat asosida olingan sopolimerlarning takomillashtirilgan texnologik sxemalarining ilmiy asoslari yaratilganligi va prisadkaning unumi va molekulyar massasiga harorat, monomerlarning nisbati va

initsiator miqdori ta'sirlarining bog'liqligini va depressorlik xossalari­ga sopolimerlarning tuzilishi va polidisperlik xususiyatlarini ta'sirini asoslash va aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati sintez qilingan ikkilamchi polipropilen asosidagi sopolimer prisadkalar­ning 0,4 % dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy va quyi haroratli xossalari­ni yaxshilashi, shuningdek O'zDts 989:2010 davlat standarti texnik talablari keltirilgan ko'rsatkichlarga javob berishi va xorijdan import qilinadigan depressor prisadkalar­ning o'rnini bosishi hamda ishlab chiqarishni mahalliy­lashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Dizel yoqilg'isining quyi haroratli xossalari­ni yaxshilovchi polipropilen va metilakrilat asosida depressor prisadkalar sintezi bo'yicha olingan tadqiqot natijalar asosida:

tadqiqotlar natijasida olingan prisadka «Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MCHJ da amaliyotga joriy etish bo'yicha istiqbolli ishlanmalar ro'yxatiga kiritilgan («Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2023-yilni 22-fevraldagi 01-08/462-son ma'lumotnomasi). Natijada, namuna sifatida olingan prisadka dizel yoqilg'isining qotish haroratini -27°C gacha, filtrlanishning chegaraviy haroratini -22°C gacha tushirishga imkon bergan;

tarkibida 4:1 nisbatda bo'lgan polipropilen va metilakrilat sopolimer depressor prisadkalar «Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi»da amaliyotga joriy qilinadigan istiqbolli rejalar ro'yxatiga kiritilgan. («Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi» MChJning 2023-yilni 22-fevraldagi 01-08/462-son ma'lumotnomasi). Natijada O'zDts 989:2001 standarti asosida tekshirilganda dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy xossalari­ga salbiy ta'sir etmasdan faqat qotish haroratini -13 dan -27°C gacha, filtrlanish chegaraviy haroratini -10 dan -22°C gacha pasaytirish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarning e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya qilingan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, 2 tasi xorijiy va 2 tasi respublika ilmiy jurnallarida chop etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi: Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 107 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, maqsad va vazifalar, shuningdek, tadqiqotning ob'ekti va predmeti ifodalangan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalari taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, natijalarning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish hamda chop etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Zamonaviy dizel yoqilg'ilarini ishlab chiqarish istiqbollari va ularning xossalarini yaxshilash usullari** deb nomlangan birinchi bobida zamonaviy dizel yoqilg'isini ishlab chiqarishning istiqbolli yo'nalishlari va uning sifatiga qo'yiladigan talablar yoritilgan. Bundan tashqari EURO va EKO dizel yoqilg'ilarini ishlab chiqarishda turli maqsadlar uchun qo'llaniladigan prisadkalar, dizel yoqilg'isining quyi haroratli xossalarini yaxshilash uchun turli yondoshuvlar, selektiv gidrokreking asosida katalitik deparafinlash jarayonini qo'llab dizel yoqilg'isini quyi haroratli xossalarini yaxshilash sharoitlari o'rganilgan. Katalitik gidrodeparafinlash va izodeparafinlash jarayonlari, dizel yoqilg'isining uglevodorod tarkibiga bog'liq maqbul depressor prisadkalari va ularning samaradorligi, har xil (so)polimerlarni neft, dizel yoqilg'isi va boshqa neft mahsulotlariga depressor prisadkalar sifatida qo'llashning zamonaviy usullariga oid va shu kabi ma'lumotlar tahlil qilingan. Adabiyotlarda keltirilgan ma'lumotlar tahlili natijalari asosida tadqiqotning maqsadi va vazifalari ifodalangan.

Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi polipropilenni tadqiq etish va ular asosida prisadkalar sintezi uchun reagentlarni va tadqiqot usullarini tanlash”** deb nomlangan ikkinchi bobida eksperimental tadqiqotlar uchun tanlangan boshlang'ich moddalarni tavsifi va ularni tayyorlash va tadqiqotni bajarish usullari keltirilgan. Dizel yoqilg'sining quyi haroratli xossalarini o'rganishning fizik-kimyoviy tahlil usullari, polipropilen asosida sopolimerlarining tuzilishini IQ va YaMR spektroskopiyasi usulida, sopolimerning depressorlik xususyatini skanerlovchi elektron mikroskopik (SEM) usulda aniqlashning asoslari yoritilgan.

Dissertatsiyaning **“Ikkilamchi polipropilen asosida olingan sopolimerlar sinteziga ta'sir qiluvchi omillar va ularning depressor xossalarini tadqiq qilish”** deb nomlangan uchinchi bobida polipropilennning (PP) metilakrilat (MA) va metakril kislota (MAK) bilan payvand sopolimerlanish kinetikasini va sopolimerlarning unumi hamda molekulyar massasiga turli omillarning ta'sirini o'rganish natijalari keltirilgan. PP bilan MA va MAK sopolimerlarning funksional guruh tarkibi va tuzilishi zamonaviy fizik va fizik-kimyoviy (IQ va YaMR spektroskopik) usullarida aniqlangan. Sintez qilingan sopolimerlar dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy va quyi haroratli xossalariga ta'siri davlat standartlari asosida tadqiq qilingan. Depressorlik ta'sir mexanizmi skanerlovchi elektron mikroskop yordamida o'rganilgan tahlil natijalar keltirilgan.

Bugungi kunda neft va neft mahsulotlari uchun keng qo'llaniladigan depressor prisadkalar qatoriga olifnlarning radikalli sopolimerlanishi bilan olinadigan prisadkalar kiradi. Neft va neft mahsulotlari uchun (so)polimerlanish reaksiyalari


asosida sintez qilinadigan prisadkalar olishda, ularning quyidagi xususiyatlarini hisobga olish lozim:

- molekulyar massa tushunchasining noaniqligi (polidisperligi);
- makromolekulalarning zanjir bo'ylab konformatsiyasi;
- polimerlarning tarmoqlanish darajasini.


Tadqiqot ob'ekti bo'lgan «Uz-KorGasChemical» QKMChJ polipropilen ishlab chiqarish jarayonining ikkilamchi mahsulotida talab namlikdan quritildi. So'ngra polipropilen p-ksilolda eritildi. Hosil bo'lgan eritmaga initsiator sifatida tanlangan DAK eritma massasiga nisbatan 0,3-0,7% miqdorda solindi. Hosil bo'lgan sistema 60-80 °C gacha qizdirgandan so'ng oz-ozdan MA qo'shildi va 1-3 soat davomida aralashtirildi.

Reaksiya mahsulotini ajratish uchun aralashma etil spirtida cho'ktirildi va filtrlandi. Qattiq qoldiq doimiy og'irlikka kelguncha 60 °C haroratda vacuum quritish shkafida quritildi.

Radikal sopolimerlanish reaksiyasi jarayonini mexanizmi va hosil bo'lgan sopolimerni quyidagi formulalar bilan izohlash mumkin.



PP va metilakrilatning sopolimerlanish reaksiyasi



PP va metakril kislota sopolimerlanish reaksiyasi

Ma'lumki polipropilenning metilakrilatlar bilan sopolimerlanishi zanjirli erkin radikalli mexanizmi bilan sodir bo'ladi. Bu mexanizm initsirlash, zanjir o'sishi, zanjir uzatilishi va zanjirning uzilishi bilan boradigan reaksiyalar bosqichlarini o'z ichiga oladi. Shu sababli, reaksiya sharoitlariga bog'liq mahsulot tarkibi va ularning molekulyar massasi keng chegaralarda o'zgarishi mumkin.

Polipropilen va metilakrilat sopolimeri molekulyar-massaviy tavsifini o'rganish natijalari 1-jadvalda keltirildi.

1-jadval

Polipropilen va metilakrilat payvand sopolimeri molekulyar-massaviy tavsifi

No	Namunalar 1:1 %	Choklanish darajasi %, Z	DAK miqdori, g/g	O'rt. arifmetik mol. mas, M_n	O'rt. vazniy mol.mas, M_w	Polidisperslik, $n=M_w/M_n$
1	PP	-	-	5,65	25,4	4,49
2	PP-MA	1,0	0,05	9,24	51,3	5,55
3	PP-MA	1,5	0,05	10,6	52,7	4,97
4	PP-MA	2,0	0,05	13,8	63,5	4,60
5	PP-MAK	1,0	0,10	7,55	50,7	6,71
6	PP-MAK	1,5	0,10	8,95	55,6	6,21
7	PP-MAK	2,0	0,10	10,9	67,1	6,15

Polipropilenning metilakrilat bilan sopolimerlanish mexanizmining ikkita xususiyati aniqlandi. Birinchisi metilakrilatlar bo'g'ini bilan tugaydigan poliakrilat molekularining makroradikalga anomal birikishining qisman sodir bo'lishidan iborat. Ya'ni odatdagiday "boshi-dumi" emas balki "boshi-boshi" qoidasi bo'yicha birikadi. Metilakrilat anomal birikishining ehtimolligi sopolimerlarda polipropilen bo'g'inlarining 10,0 dan 45,0 % gacha bo'lgan miqdorda oshishi bilan 3,0 dan 15,0 % gacha ortadi. Bu polipropilen bo'g'ini bilan tugaydigan makroradikalga metilakrilat birikishining katta moyilligi bilan izohlanadi. Polipropilenning metilakrilat bilan sopolimerlanishi mexanizmining ikkinchi xususiyati tarmoqlanish reaksiyalari bilan bog'liqdir.

Olib borilgan izlanishlar natijasida polipropilenning metilakrilat bilan sopolimerlanish reaksiyasi tezlik konstantasini aniqlandi.

2-jadval

**Polipropilenning metilakrilat bilan eritmada sopolimerlanish tavsifi
(initsiator DAK=5.10⁻³ mol/l, T=80 °C, reaksiya davomiyligi 120 min)**

Dastlabki aralashma tarkibi, % mol		Efir guruhi miqdori, 10 ² %	Sopolimer tarkibi, % mol		Molekulyar massasi, M_n efir soni bo'yicha
M_1	M_2		m_1	m_2	
10	90	0,6688	5,00	95,00	838,82
20	80	0,6469	11,00	89,00	867,21
30	70	0,6155	19,00	81,00	911,45
40	60	0,5673	30,00	70,00	988,89
50	50	0,5331	37,00	63,00	1052,33
60	40	0,4787	47,00	53,00	1171,92
70	30	0,4097	58,00	42,00	1369,29
80	20	0,3287	69,00	31,00	1706,72
90	10	0,2027	83,00	7,00	2767,63

Polipropilenning metilakrilat bilan sopolimerlanishi quyidagi konstantalar bilan xarakterlanadi: monomerlarning nisbiy reaksiyon qobiliyati 70 °C da $r_1 = 0,80$ va $r_2 = 1,05$; 130 °C da $r_1 = 0,93$ va $r_2 = 1,07$ ga teng. Reaksiyani 65 °C haroratda o'tkazganda sopolimerlanish konstantalari uchun quyidagi qiymatlar olindi: polipropilen uchun 0,75 dan 0,94 gacha; metilakrilat uchun 1,51 dan 1,15 gacha. Dastlabki monomerlar aralashmasi tarkibini sopolimer tarkibiga bog'liqligi 2 va 3-jadvallarda keltirildi.

3-jadval

Polipropilenning metakril kislotasi bilan eritmada sopolimerlanishda dastlabki aralashma tarkibining sopolimer tarkibiga bog'liqligi (erituvchi p-ksilol, initsiator DAK=5.10⁻³ mol/l, T=80 °C, reaksiya davomiyligi 120 min)

Dastlabki aralashma tarkibi, % mol		Kislota guruhi miqdori, 10 ² %	Sopolimer tarkibi, % mol		Molekulyar massasi, M _n kislota soni bo'yicha
M ₁	M ₂		m ₁	m ₂	
10	90	0,6250	3,00	97,00	897,60
20	80	0,5987	7,00	93,00	937,03
30	70	0,5748	13,00	87,00	975,99
40	60	0,5410	21,00	79,00	1036,95
50	50	0,5000	30,00	70,00	1108,69
60	40	0,4500	40,00	56,00	1246,66
70	30	0,3888	51,00	49,00	1442,90
80	20	0,3202	62,00	38,00	1752,03
90	10	0,2195	76,00	24,00	2555,81

Sopolimerlanishning ikkala konstantasi $r_1 < 1$, $r_2 > 1$ tengbo'lib, metilakrilat konsentratsiyasining oshishi bilan reaksiya tezligining oshishi metilakrilat bo'g'ini bilan tugaydigan makroradikal polipropilenli makroradikalga nisbatan faolroq ekanligi bilan tushuntiriladi.

PP va MA mol nisbatlari 1:1dan 4:1 gacha bo'lgan oraliqda radikal sopolimerlanishi jarayonlarini o'rganish eng maqbul mol nisbat 4:1 ekanligini ko'rsatadi. Bundan tashqari harorat (60-80°C) va eritma konsentatsiyasi ta'sirini o'rganish sistema tarkibida 50 % PP miqdorida erituvchi muhitida sopolimerning unumi yuqori ekanligi aniqlandi va olingan natijalar 4-jadval va 1-rasmda keltirildi.

4-jadval


PP va MA sopolimerlanish reaksiyasiga harorat va initsiatorsarfining ta'siri

Sopolimerlanish sharoiti			Sopolimer tasnifi		
Harorat °C	PP miqdori %	(DAK) initsiator miqdori %	Sopolimer unumi % (60 min)	Sopolimer unumi % (120 min)	Sopolimer unumi % (180 min)
60	50	0,3	51,8	65,2	78,4
65		0,4	52,4	68,1	79,8
70		0,5	53,7	70,4	81,2
75		0,6	56,1	73,8	83,7
80		0,7	54,3	74,5	86,3

Hosil bo'lgan sopolimerning o'rtacha molekulyar massasi polipropilenning molekulyar massasiga to'g'ri kelmaslik sababi kinetik zanjirning eritma orqali uzatilishi tufayli izohlash mumkin.

Bunda olingan sopolimerning molekulyar massasi polipropilenli eritmaning konsentratsiyasiga bog'liq bo'ladi.

Jarayonning aktivlanish energiyasi 48 kJ/molga tengligi aniqlanib, bu kattalikni solishtirish uchun polipropilen eritmasi bo'lgan sopolimerlanishdagi



1-rasm. PP va MA sopolimerlanish reaksiyasiga harorat va initsiator sarfi o'zgarishining ta'siri (PP 50%, reaksiya davomiyligi 180 min)

qiymati 64 kJ/molga tengligi keltirilgan.

Sopolimer tarkibida PP miqdori 80 % bo'lganda reaksiya unumiga va molekulyar massasiga harorat, initsiator miqdori va reaksiya davomiyligi ta'siri o'rganildi va bu borada olingan natijalar 5-jadvalda keltirildi.

5-jadval


PP va MA sopolimerlanish reaksiyasiga harorat va initsiatorning ta'siri

Sopolimerlanish sharoiti			Sopolimerlanish tasnifi					
Harorat °C	PP %	Initsiator miqdori %	Reaksiya davomiyligi 60 minut		Reaksiya davomiyligi 120 minut		Reaksiya davomiyligi 180 minut	
			Sopolimer unumi	Sopolimer MM	Sopolimer unumi	Sopolimer MM	Sopolimer unumi	Sopolimer MM
60	80	0,3	46,3	4270	54,3	4827	72,4	5572
65		0,4	47,8	4689	59,1	5348	76,6	5823
70		0,5	49,2	4892	63,2	5653	81,2	6347
75		0,6	52,4	4805	66,4	5612	84,9	6404
80		0,7	56,1	4561	70,8	5479	88,3	6104


5-jadval va 2,3,4-rasmlarda sopolimer tarkibida monomerlarning dastlabki aralashmasida PP miqdori 80% bo'lganda, 60-80 °C harorat va initsiatorning miqdori 0,3-0,7 % oralig'ida bo'lganda sopolimerlanish reaksiyasi unumi va sopolimerlarning molekulyar massasi o'zgarish natijalari keltirilgan. Dastlabki aralashmada PP va MA 4:1 nisbatda bo'lganda sopolimerlanish reaksiyasi davomiyligi 60dan180minutgacha ortishi sopolimerning molekulyar massasi 4827,12 g/mol dan 6404,29 g/molgacha ortishi aniqlandi. Haroratning 60 °C dan 70°C gacha o'zgarishi molekulyar massasiga sezilarli ta'sir etmasdan sopolimerning unumi oshishiga olib keldi. Bunda PP va MA bilan sopolimerlanishida Lyus asoslari turdagi erituvchilar o'rtasida kompleks hosil bo'lishi ehtimolligi mavjud.

Jarayon initsiator ishtirokida olib borilganda PP va MA ning o'zaro sopolimerlanish doimiylari o'zgarishi, r_1 va r_2 kattaliklarning qiymatlari p-kislolda ortib borishi bilan tushuntiriladi. Erituvchining dielektrik singdiruvchanligi ϵ oshishi bilan r_1 qiymat chiziqli kamaysa, r_2 qiymat esa chiziqli ravishda oshadi. DAK


yordamida sopolimerlanish reaksiyalari initsirlanganda sopolimerlanish doimiy qiymatlari o'zgarishi sezilarli darajada kuzatilmadi.



2-rasm. Sopolimerning unumi va molekulyar massasiga harorat va initsiator sarfi o'zgarishining ta'siri (PP 80%, reaksiya davomiyligi 60minut)



3-rasm. Sopolimerning unumi va molekulyar massasiga harorat va initsiator sarfi o'zgarishining ta'siri (PP 80%, reaksiya davomiyligi 120minut)



4-rasm. Sopolimerning unumi va molekulyar massasiga harorat va initsiatorsarfi o'zgarishining ta'siri (PP 80%, reaksiya davomiyligi 180-minut)

ta'surlashuvi natijasida kamayishi bilan tushuntiriladi.

Shundan kelib chiqib (2,3,4-rasm) harorat va initsiatorning ortishi barcha kimyoviy reaksiyalarni, shu jumladan sopolimerlar hosil bo'lishida zanjir o'shish reaksiyasini tezligining ortishiga olib keladi.

Bundan tashqari polipropilen va MA sopolimeri tarkibida PP 80% bo'lgan miqdori dizel yoqilg'isida yaxshi eruvchanligi hamda bu o'z navbatida dizel yoqilg'isining fizik-kimyoviy xossalarini yaxshilagan holda, qotish va filtrlanish chegaraviy haroratlarini pasaytirib, dizel yoqilg'isini standart talablarga to'liq javob berishi aniqlangan.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasi shuni ko'rsatdiki sopolimer unumining yuqori qiymatini ta'minlaydigan optimal sharoit sifatida polipropilen monomerlar aralashmasida ulushi 80%ni va initsiator miqdori 0,7% tashkil etadigan sistemani va reaksiyani 180 daqiqa davomida 80 °C haroratda olib borishni ko'rsatish mumkin. Bunda sopolimer molekulyar massasi 6104 g/mol, reaksiyasining unumi esa 88,3 %

Radikal sopolimerlanishida qutblanish effektining namayon bo'lishi sopolimer tarkibida M_1 va M_2 takrorlanib kelishi uchun asosiy omil hisoblanadi.

Monomerlarning qutbliligida farq qanchalik katta bo'lsa, PP va MA bo'g'inlarining ketma-ket navbat bilan takrorlanishiga moyilligi shunchalik yuqori bo'ladi. Monomer faoliyatining qutblanish effektlarini yuzaga kelishi hisobiga o'zgarishi reaksiya faollanish energiyasining elektrodonor radikal elektroakseptor monomer bilan

ppm), OCO guruhiga birikkan -CH₂(6,12 ppm), -CH₂ (6,12 ppm), -CH- (1,83 ppm)guruhlariga xos yutilish signallari ko'rsatilgan.

6-jadval


O'zDts 989:2001 standarti asosida tadqiqot natijalari

Ko'rsatkichlar nomi	Nazorat usuli	O'zDst 989:2001 (3-1)	MZT	
			Diz. yoqil. prisadkasiz	Diz. yoqil.+ prisadka - 0,4%
1. Setan soni, kam emas:	GOST 3122	50	53,5	52,7
2. 20 °C zichligi, kg/m ³ , ko'p emas:	GOST 3900	863,4	860	861,4
3. Fraksion tarkibi: haroratda °C, 50% haydash, ko'p emas: Haroratda °C, 95% haydash, ko'p emas:	GOST 2177	280 360	262 346	263 356
4. Suv miqdori, %	GOST 2477	mavjud emas	mavjud emas	mavjud emas
5. Filtirlanishni chegaraviy harorati, °C yuqori emas,	EN 116	minus 10	minus 9	minus 22
6. Yod soni, 100 g yoqilg'ida, g, ko'p emas	GOST 2070	5	1,47	1,43
7. 10 % qoldiqda koks hajmi, ko'p emas	ASTM D 4530	0,20	0,19	0,015
8. Kul miqdori, % (massa ulushda), ko'p emas	GOST 1461	mavjud emas	0,01	mavjud emas
9. Merkaptanli oltingugurt miqdori %, ko'p emas	GOST 17523	0,01	0,01	0,0006
10. Kinematik qovishqoqligi, mm ² /s, orasida	GOST 31391	3,0-6,0	4,8	4,14
11. Kislotalik, mg, KOH 100 sm ³ yoqilg'ida, ko'p emas	GOST 5985	5	0,25	0,1
12. Yopiq tigelda chaqnash harorati, °C, kam emas:	GOST 6356	62	55 87	53 85
13. Mexanik zarrachalar, %, ko'p emas	GOST 6370	0,0024	0,0014	0,0014
14. Qotish harorati, °C	GOST 20287	minus 25	minus 13	minus 27
15. Loyqalanish harorati °C	GOST 5066	minus 5	minus 5	minus 5


6-jadvalda ikkilamchi polipropilen va metilakrilat asosida sopolimer prisadkalarining Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi gidro tozalangan TD-L markali yoqilg'isi namunalariga ta'siri keltirilgan. Dizel yoqilg'isining fizik- kimyoviy va ekspluatatsion xossalari O'zDts 989:2001 standarti talablari asosida o'rganilgan.

Shunday qilib, jadvaldan ko'rinib turibdiki, gidrotozalangan yozgi dizel yoqilg'isiga 0,4 % prisadka eritmasidan qo'shilishi yoqilg'ining quyi haroratli xossalarni yaxshilangan holda, asosiy fizik-kimyoviy ko'rsatkichlariga ta'sir etmaganligini va O'zDst 989:2001 texnik talablariga to'liq javob berishini ko'rishimiz mumkin.


Sintez qilingan sopolimerlarning dizel yoqilg'isida depressor ta'sir mexanizmini SEM yordamida -5, -15, -25°C haroratlarda o'rganildi.



9-rasm. -5 °C da 4:1 nisbatda PP va MA + DY k`orinishi



10-rasm: -15 °C da 4:1 nisbatda PP va MA + DY k`orinishi



11-rasm: -25 °C da 4:1 nisbatda PP va MA + DY k`orinishi

zanjirsimon tuzilishga ega bo'ladi.

(11-rasm) -25 °C dizel yoqilg'isi zanjirga o'xshash zarracha tuzilmalari bir-biri bilan o'zaro bog'lanadi. Parafin molekularining bir-biriga yaqinlashgan va bir-biri bilan bog'lanadi va zarrachaning ingasimon kristal oglomerat strukturaga aylanadi.

Polipropilen va metilakrilat asosli sopolimer unumiga turli omillarning ta'sirini matematik modellashtirish. Sopolimer unumiga ta'sir qiluvchi omillar sifatida quyidagilar tanlangan:

$$Z_1 - \text{harorat}^{\circ}\text{C}, \quad Z_1^- = 60, \quad Z_1^+ = 80;$$

$$Z_2 - \text{initsiator miqdori } \%, \quad Z_2^- = 0,3, \quad Z_2^+ = 0,7;$$

Sopolimerlanishda harorat va initsiatorning barcha o'zaro ta'sirini hisobga olgan holda regressiya tenglamasini qurib, biz olingan modelning adekvatligini tekshiramiz va uning talqinini qilamiz.

Biz barcha o'zaro ta'sirlarni va o'rtacha javob qiymatlarini hisobga olgan holda rejalashtirish matritsasini quramiz 7-jadval.

O'lchov natijalarini qayta ishlash rejasiga muvofiq, biz dispersiyalarning bir xilligi haqidagi gipotezani sinab ko'ramiz.

Rasmlardan ko'rinib turibdiki bu dizel yoqilg'isi zarralari sferik birlamchi zarrachalardan iborat ekanligini ko'rsatadi. Elektrostatik o'zaro ta'sir natijasida ular bir-biri bilan to'qnashadi va zanjirsimon va tarmoqlangan aglomerat tuzilmalarini hosil qilish uchun birlashgan.

(9-rasm) -5 °C prisadkali dizel yoqilg'isida birlamchi zarrachalarining tuzilishi bir-birining birlashishiga kamroq bo'lib, aniq va muntazam zanjirsimon tuzilishni ko'rsatdi.

(10-rasm) -15 °C prisadkali dizel yoqilg'isida birlamchi zarrachalar aniqlikga ega bo'lmagan markazlarda bir-birining ustiga yig'iladi va yanada mustahkam

Natijalarni qayta ishlash uchun rejalashtirish matritsasi

Tajriba №	Boshlang'ich qiymatlar		Kod qiymatlari		Y: minut_tajribalar			Y O'rtacha
	°C	%	X ₁	X ₂	Y ₁	Y ₂	Y ₃	
1	60	0,3	-1	-1	45,7	46,2	47,0	46,3
2	80	0,7	+1	+1	55,8	55,2	57,3	56,1
3	80	0,3	+1	-1	46,4	47,3	47,9	47,2
4	60	0,7	-1	+1	50,6	52,1	52,7	51,8

Buning uchun quyidagi formula bo'yicha tajribalarning har birining dispersiyalarini hisoblaymiz:

$$S_k^2 = \frac{1}{m-1} \cdot \sum_{j=1}^m (y_{kj} - \bar{y})^2;$$

$$S_2^2 = \frac{1}{3-1} \left((55,8 - 56,1)^2 + (55,2 - 56,1)^2 + (57,3 - 56,1)^2 \right) = 1,17$$

$$S_3^2 = \frac{1}{3-1} \left((46,4 - 47,2)^2 + (47,3 - 47,2)^2 + (47,9 - 47,2)^2 \right) = 0,57$$

$$S_4^2 = \frac{1}{3-1} \left((50,6 - 51,8)^2 + (52,1 - 51,8)^2 + (52,7 - 51,8)^2 \right) = 1,17$$

Ko'rinib turibdiki, maksimal dispersiya bir vaqtning o'zida ikkita tajribaga xosdir, shuning uchun biz $S_{max}^2 = S_2^2 = 1,17$ ni olishimiz mumkin. Shunday qilib, namunaviy dispersiyalarni hisoblash quydagicha 8-jadval:

Namunaviy dispersiyalarni hisoblash

j	y_1	y_2	y_3	\bar{y}_j	$(y_{j1} - \bar{y}_j)^2$	$(y_{j2} - \bar{y}_j)^2$	$(y_{j3} - \bar{y}_j)^2$	S_j^2
1	45,7	46,2	47,0	46,3	0,3600	0,0100	0,4900	0,4300
2	55,8	55,2	57,3	56,1	0,0900	0,8100	1,4400	1,1700
3	46,4	47,3	47,9	47,2	0,6400	0,0100	0,4900	0,5700
4	50,6	52,1	52,7	51,8	1,4400	0,0900	0,8100	1,1700

Jadvalning oxirgi ustunining elementlarini umumlashtirib:

$$\sum_{j=1}^n S_j^2 = 3,34$$

Bundan biz takrorlanuvchanlik dispersiyasini olamiz:

$$S_{\{y\}}^2 = \frac{1}{4} \sum_{j=1}^4 S_j^2 = \frac{1}{4} \cdot 3,34 = 0,8350$$

Endi biz quyidagi formula bo'yicha hisoblaymiz

$$G_p = \frac{S_{max}^2}{\sum_{k=1}^N S_k^2}$$


Koxren kriteriyasining qiymati:

$$G_p = \frac{1,17}{0,43 + 1,17 + 0,57 + 1,17} = \frac{1,17}{3,34} = 0,35$$

Ko‘rinib turibdiki, hisoblangan qiymat jadvaldagidan kamroq, shuning uchun tajribalarning dispersiyasi bir xil va tajribalarning o‘zi takrorlanishi mumkin. Hosil bo‘lgan regressiya tenglamasining xossalari natijasiga ko‘ra initsiator miqdorining ta‘siri temperaturadan ko‘ra kuchliroq.

Dissertatsiyaning to‘rtinchi **“Polipropilen asosida depressor prisadkalar olish texnologiyasini ishlab chiqish va iqtisodiy samaradorligini baholash”** bobida dizel yoqilg‘ining quyi haroratdagi xossalari yaxshilovchi prisadkalarni olishning texnologik sxemasini ishlab chiqish bo‘yicha natijalar keltirilgan.

Tadqiqot olib borilgan ketma-ketlikka asoslanib dizel yoqilg‘ilarning quyi haroratli xossalari yaxshilovchi prisadkalar ishlab chiqarishning uzluksiz texnologik jarayonini (12-rasm) uch bo‘limga ajratish mumkin: xomashyoni quritish va tayyorlash bo‘limi, sopolimer depressor prisadka olish bo‘limi, erituvchi va cho‘ktiruvchini ajratish bo‘limlaridan iborat.



12-rasm. Polipropilen asosli dizel yoqilg‘isining quyi haroratdagi xossalari yaxshilovchi prisadkalarni olishning uzluksiz prinsipial texnologik sxemasi
 1-Polipropilen kukuni sig‘imi; 2- quritgich; 3-pnevmatik uzatish lifti; 6,10-reaktor; 4- o‘lchov sig‘imi; 5- azot sig‘imi; 9,13-nasos; 8,14,17,22,23,24,25-issiqlik almashtirgich; 11-initsiator sig‘imi; 12- monomer sig‘imi; 15-tsentrafuga; 16-filtr; 18,26-kolonna; 19-reboylar; 20- kondensator, 21-ajratgich.

Ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy samaradorligi

Tadqiqot natijalari asosida olingan sopolimer prisadkalar narxi import qilinayotgan qishgi dizel yoqilg‘ilari ishlab chiqarishda qo‘llanilayotgan prisadkalar narxi bilan o‘zaro taqqoslandi va natijalar 9-jadvalda keltirildi.

Germaniyadan keltiriladigan BASF kompaniyasining Keroflux 3863 markali prisadka narxining polipropilen va metilakrilat asosli prisadkalar narxidan kutilgan foyda

№	Prisadka	O'lchov birligi	Miqdori	Bir birligining narxi, so'm	Umumiy yig'indi, so'm
1	Keroflux 3863	kg	1000	21500	21 500 000
2	PP+MA	kg	1000	13331,3	13 331 321
Kutilgan foyda					8168679,05

Hisoblashlarga ko'ra polipropilen va metilakrilat asosidagi prisadkalarni qo'llanilishidan kelib chiqadigan iqtisodiy samaradorlik qishki dizel yoqilg'ilarini sovuq sharoitlarda xizmat qilishini va aksariyat respublikamizda qo'llaniladigan xorijiy prisadkalarni mahalliy prisadkalarga almashtirish orqali dizel yoqilg'ilari ishlab chiqarish korxonalari miqyosida iqtisodiy samaradorlikka erishish mumkinligini ko'rsatadi.

XULOSA

1. PP bilan MA va MAK sopolimerlarning dizel yoqilg'isida quyi haroratli xossalariga ta'siri qiyoslaganda PP va MA asosida olingan prisadkalarining samaradorligi yuqori ekanligi sinov natijalari asosida isbotlandi.
2. PP va MA sopolimerlanish reaksiya jarayonida sopolimer tarkibida polipropilenni miqdori 80 %, harorat 75°C, initsiator miqdori 0,6 % bo'lganda reaksiya unumi 84,9 % tashkil etishi aniqlandi.
3. Polipropilen va metilakrilat asosida olingan prisadkani amalda qo'llanilayotgan xorijiy analoglari Keroflux 3863 markali depressor prisadkalarining fizik-kimyoviy va texnik xususiyatlarini bilan taqqoslash orqali uning raqobatbardoshligi isbotlandi.
4. Farg'ona neftni qayta ishlash zavodi MChJ TD-L markali dizel yoqilg'isining quyi haroratli xossalariga prisadkaning 0,4 % li eritmasi ta'siri tekshirilganda, qotish haroratini -13 dan -27 °C ga, filtrlanish chegaraviy haroratini -10 dan -22 °C ga yaxshilanganligi va natijalar O'zDTs 989:2001 davlat standart talablariga javob berishi aniqlandi va ishlab chiqilgan prisadkalar amaliyotga joriy qilinadigan ishlar ro'yxatiga kiritildi.
5. Sintez qilingan prisadkalarining dizel yoqilg'isi morfologiyasiga ta'sir mexanizmi o'rganilganda, sopolimer tarkibida PP uzun zanjiri va kislorod saqlagan funksional guruhlar sovuq sharoitda n-parafin uglevodorodlarning kristallanishiga to'sqinlik qilishi SEM mikroskopik tahlil asosida isbotlandi.
6. Ikkilamchi polipropilen va MA asosida sopolimerlanish reaksiyasining maqbul sharoitlari tanlandi va prisadka olishning uzluksiz texnologik aspekti ishlab chiqildi. Depressor prisadkalarining ishlab chiqarish jarayonini mahallashtirish asosida 1 tonnasiga 8168679,05 so'm foyda keltirishi aniqlandi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc. 03/28.02.2022.Т.101.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ БУХАРСКОМ ИНЖЕНЕРНО –
ТЕХНОЛОГИЧЕСКОМ ИНСТИТУТЕ**

БУХАРСКИЙ ИНЖЕНЕРНО-ТЕХНОЛОГИЧЕСКИЙ ИНСТИТУТ

САПАШОВ ИКРАМЖАН ЯУМЫТБАЙЕВИЧ

**ТЕХНОЛОГИЯ ПОЛУЧЕНИЯ ПРИСАДОК, УЛУЧШАЮЩИХ
НИЗКОТЕМПЕРАТУРНЫЕ СВОЙСТВА ДИЗЕЛЬНОГО ТОПЛИВА, НА
ОСНОВЕ ВТОРИЧНЫХ ПРОДУКТОВ ПРОЦЕССА ПРОИЗВОДСТВА
ПОЛИПРОПИЛЕНА**

02.00.08 – Химия и технология нефти и газа

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD) ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Бухара - 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и техники Республики Узбекистан за номером B2023.2.PhD/T3560

Диссертация выполнена в Бухарском инженерно-технологическом институте.

Автореферат диссертации на трёх языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице Учёного совета (www.bmti.uz) и информационно-образовательном портале Ziyonet (www.ziyonet.uz)

Научный руководитель:	Фозилов Садриддин Файзуллаевич доктор технических наук, профессор
Официальные оппоненты:	Махмудов Мухтор Жамолович доктор химических наук, доцент Адилов Бобиржон Замирович доктор технических наук, старший научный сотрудник
Ведущая организация:	Каршинский инженерно-экономический институт

Защита диссертации состоится « 11 » августа 2023 г. в «14⁰⁰» часов на заседании Учёного совета DSc.03/28.02.2022.T.101.01 при Бухарском инженерно-технологическом институте по адресу: 200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (99865) 223-78-84; факс: (99865) 223-78-84; e-mail: bmti_info@edu.uz

Диссертация зарегистрирована в Информационно-ресурсном центре Бухарского инженерно-технологического института за № 440, с которой можно ознакомиться в ИРЦ (200117, г. Бухара, ул. К.Муртазоева, 15. Тел.: (99865) 223-78-84).

Автореферат диссертации разослан « 29 » июля 2023 года.
(протокол рассылки № 19 от « 07 » июня 2023 г.).



Н.Р. Баракаев
Председатель научного совета по
присуждению ученых степеней
д.т.н., профессор

Р.Р. Хайитов
Ученый секретарь научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.т.н., старший научный сотрудник

Х.Б. Дустов
Председатель научного семинара при научном
совете по присуждению ученых степеней
д.х.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация к диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мире в результате повышения требований, предъявляемых к эксплуатационным свойствам дизельных топлив, для получения топлив высшего качества, отвечающих стандартам Евро-4,5 прежде всего необходимо выбрать соответствующее сырьё, усовершенствовать и модернизировать технологию переработки. Важное значение имеет проведение исследований относительно отходов процессов производства и вторичных продуктов, внедрение эффективных методов их разумного использования, в том числе использование присадок в улучшении экологических и физико-химических свойств дизельных топлив в отличие от топлив другого типа.

Во всём мире в результате переработки нефти и газа, отходов химической промышленности и вторичных продуктов, ведутся исследования в направлении получения из них качественных изделий, создания новых методов получения альтернативных и синтетических топлив, создания присадок и композиций из них различного состава в целях улучшения физико-химических свойств топлив. В связи с этим, на сегодняшний день при производстве дизельных топлив высокого качества с низкотемпературными свойствами требуемого уровня, вместе с исследованиями по использованию самых простых и экономичных методов в технологическом аспекте, получения присадок различного состава, отдельное внимание уделяется использованию источников имеющихся отходов и вторичных продуктов.

В нашей Республике в результате эффективной работы нефтегазовой отрасли высокие результаты достигнуты в области диверсификации нефтепродуктов и удовлетворение потребностей потребителей в качественной нефтяной продукции. В результате целого ряда проведённых исследований к 2021 году в истории нашей Республики Бухарским нефтеперерабатывающим заводом впервые было налажено производство экологически чистого дизельного топлива марки “Евро-6”. В стратегии развития Нового Узбекистана определены такие важные задачи, как “широкое внедрение инноваций в экономику, развитие кооперационных связей промышленных предприятий и научных учреждений”¹. С этой точки зрения важное значение имеет получение и внедрение в производство импортозамещающих присадок на основе местного вторичного сырья отвечающих международным экологическим стандартам Евро-5, и улучшающим эксплуатационные качества топлив.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач определённых в Постановление Президента Республики Узбекистан от 28 января 2022 года № ПФ-60 «О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы», в указах УП-3983 от 25 октября 2018 года «О мерах по опережающему развитию химической промышленности в Республике Узбекистан», а также УП-4265 от 3 апреля 2019 года «О мерах по дальнейшему реформированию химической промышленности и повышению ее

¹ Указ Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28.01.2022 г. «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы»

инвестиционной привлекательности» и задачам, определенным в других нормативно-правовых документах, касающихся данной деятельности.

Соответствие исследования основным приоритетным направлениям развития науки и технологий Республики. Диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий Республики Узбекистан VII «Химическая технология и нанотехнология»

Степень изученности проблемы. В мире, по получению присадок, улучшающих физико-химические и эксплуатационные свойства дизельных топлив, проводились исследования со стороны Vincent Burgess, Wai Yin Leung, Jacqueline Reid, Jurgen Roder, Yongfei Li, Jiao Yan, Ya Wu, Н.И. Черножуков, Т.Р. Juze, Р.А. Rebinder, П.И. Санин, Т.М. Мутисова, А.М. Данилов, Р.А. Тертерян, Н.К. Кондрашева, Я.Б. Чертков, Е.Г. Гелажов, Р.Е. Керн, М.М. Лобашова и другие, в нашей стране Ш.М. Сайидахмедов, А.Т. Жалилов, С.М. Туробжонов, В.Н. Хамидов, Г.Р. Норметова, М.П. Юнусов, С.А. Абдурахимов, О.М. Ёриев, Н. Ёдгоров, С.Ф. Фозилов и другие.

